

---

## Elyorjon Eshimboyev: Faoliyatimni kengaytirib ish o'rinlar sonini 100 taga etkazib eksportni yo'lga qo'yishni maqsad qilganman.

Tadbirkor faoliyatini 2017 yilda chorvachilik va baliqchilik yo'nalishida boshlagan "Vodiy yuksalish davri tomorqa xizmati" MChJ keyinchalik yangi loyiha asosida un, ozuqa yemi va qolipli non ishlab chiqarishni yo'lga qo'ydi. Loyiha qiymati 1,1 mln. AQSh dolloriga teng.

Hozirda 15 ta ish o'rin yaratilgan bo'lib, keyingi bosqichlarning ishga tushigi hisobiga ularning soni 40 taga etadi. Tadbirkor tomonidan hozirda un, non va yem mahsulotlari ishlab chiqarilmoqda. Baliqchilik hamda chorvachilik ham ancha rivojlangan. Shuningdek, hududda baliq tanovuli uchun ovqatlanish maskani ham tashkillangan. Dam olish maskanida bir vaqtning o'zida yuzdan ortiq xo'randalarga xizmat ko'rsatiladi.

Tadbirkorning rejalari ham bisyor. Kelajakda meva-sabzavotlarini quritish va saqlash loyihasini ishga tushirmoqchi. Loyihaning ishga tushishi hisobiga ishchilar soni 100 taga etadi.

2023-06-21 11:18:33